

KONSEPT VA KONSEPTUAL MURAKKABLIK

Inoyatova Dilnoza Ilxomovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning yetakchi yo'nalishlari hisoblangan kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada konsept muhim kategoriya hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog'liqligini o'rganuvchi fandir. Konsept esa kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, madaniyat va inson o'rtasidagi aloqa o'rnatuvchi elementdir. “Konsept” termini 90-yillardan beri lingvistikada qo'llanilib kelinmoqda. Konsept tushunchasi hali hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas.*

***Kalit so'zlar:** konsept, tushuncha, freym tahlil, geshtalt, kognitiv tilshunoslik.*

XX asrning oxirgi choragida vujudga kelib zamonaviy lingvistikaning peshqadam yo'nalishiga aylangan kognitiv tilshunoslik dastlab Amerikada vujudga keldi. Kognitiv grammatika asoschisi R.Langaker, va keyinchalik J.Lakof, Ch.Filmor o'zlarining ilmiy ishlari bilan kognitiv lingvistikaga asos yaratdilar. Insonning bilish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan kognitiv tilshunoslik atamasi ingliz tilidan olingan bo'lib “cognitive-bilish va idrok etish harakati va jarayoni bilan bog'liq”¹ degan ma'noni bildiradi. Ammo kognitiv tilshunoslikning asosini faqat bilish faoliyati bilan emas, hayvonlarning ham qisman bilish, anglash va tushunish

¹ Oxford English dictionary. (2024). Cognitive. In Oxford Learner's Dictionaries. Retrieved May 8, 2024, from <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/cognitive>.

holatlarini inobatga olgan holatda ushbu yo'nalishni tafakkur va unga bog'liq bo'lgan ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan ham bog'liq holda to'liq tasavvur qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.²

Kognitiv lingvistika aslida zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida o'tgan asrda shakllangan bo'lsada, uning vujudga kelishi uchun ko'plab olimlarning asarlari va falsafiy g'oyalari asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, qadimgi yunon faylasufi Aflotun o'zining shakllar nazariyasida konseptlar tabiati haqida fikr bildirar ekan, moddiy dunyo adolat, go'zallik va xunuklik, yaxshilik kabi mukammal va o'zgarmas shakllari mavjud bo'lgan dunyoning aksi ekanligi haqida ta'kidlagan. Bundan tashqari, uning asosiy hissasi kognitiv tilshunoslikning asosiy mavzulari hisoblangan til, tafakkur va voqelik o'rtasidagi bog'liqliklarni o'rganishida sanaladi.

Yana bir yunon faylasufi Aristotel, Aflotundan farqli ravishda, konseptlar tafakkurda tajribalar orqali shakllanishini aytib o'tgan. Uning fikricha, tushuncha va konseptlar hissiy tajribalarga tayangan holda ya'ni kuzatish (ko'rish, hidlash va ta'm bilish, eshitish) va kategoriyalashtirish orqali ongda shakllanadi. Keyinchalik, XVII asrda ingliz tilshunosi J.Lok ham Aristotel singari inson bilimi, tafakkuridagi konseptlar hissiy tajribalar orqali inson ongida mukammallashishini ta'kidlagan.³

Nemis faylasufi I.Kant fikricha, inson ongi nafaqat voqelikni o'zlashtiradi, balki u kognitiv tuzilmalar orqali uni faol shakllantiradi.⁴ I.Kantning insoniyat dunyoni vaqt, makon va sabablar singari konseptual kategoriyalar orqali qabul qilishi va insonning ichki aqliy tuzilamalari tashqi voqelikni qanday

² Safarov, Sh. (2006). Kognitiv tilshunoslik. "Sangzor" nashriyoti.

³ Locke J. An essay concerning human understanding (P.H.Nidditch). Clarendon Press. 1975

⁴ Kant I. Critique of pure reason, by P.Guyer and A.W.Wood. Cambridge University Press. 1998

shakllantirganligi haqidagi fikrlari keyinchalik, J.Lakof va Jonsonlarning konseptual metafora nazariyasi yaratilishida asos bo'lib xizmat qildi. Ularning fikriga qaraganda, bizning konseptual tizimimiz metaforik tabiatga ega.⁵ Ya'ni, mavhum tushuncha va konseptlar (xunuklik, go'zallik, axloq kabilar) aniq va jismoniy tajribalar orqali tushuniladi. Masalan, ingliz madaniyatida go'zallik yorug'lik, kuch-qudrat, san'at asari timsoli bo'lsa, xunuklik har ikkala madaniyat uchun ham qorong'ulik, zulmat, axloqiy buzuvchilik, halokat timsoli sanaladi.

J. Lakof kognitiv lingvistikaning yetakchi vakillaridan biri hisoblanadi. Uning fikriga qaraganda, inson ongida konsept kognitiv modellar orqali tuziladi va ko'pgina mavhum tushunchalar metaforik tarzda tushuniladi.⁶

Konsept tushunchasining lug'aviy ma'nosi ustida ham ko'pgina olimlar har xil fikrlarni bildirishadi. Unga ko'ra mantiqiy kategoriya, amaliy falsafa tushunchasi, milliy mentalitetning asosiy birligi sifatida qaraydiganlar ham bor. "Konsept"-lotincha "conceptus" so'zidan olingan bo'lib, "tushuncha" ma'nosini bildiradi. Kognitiv atamalar lug'atida esa konsept atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: konsept bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarning inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir. "Konsept" atamasi zamonaviy tilshunoslikda biror bir leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo'llaniladi. Kundalik ilmiy ijodda esa konsept atamasi "tushuncha" bilan sinonim sifatida qo'llaniladi.

⁵ Lakoff, G. Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. University of Chicago Press. 1987

⁶ Lakoff, G. Women, Fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. University of Chicago Press. 1987

O'zbek tilshunosligida ham "konsept" tushunchasi turli talqinga ega. Masalan, Sh.Safarov "moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushunchaning tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi"ni ta'kidlaydi⁷.

O'.Q.Yusupov konseptni "tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir", deb belgilaydi. Tushuncha va konseptni farqlashda olim quyidagicha fikr bildiradi: "konsept bilan tushunchani ayebergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir"⁸. Yuqoridagi fikrlarni o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, konsept tushunchasi har bir shaxs uchun individual va jamiyat uchun umummilliy bo'lgan, ong, til va ruhiyatning bog'liqligida kechuvchi jarayondir, tilshunoslikda yanada chuqur o'rganishni taqozo etadigan mavzu.

Kognitiv grammatika asoschisi R.Langaker o'z asarida konseptning kognitiv tarmoqlar asosida shakllanishi haqida to'xtalib o'tgan. Uning fikricha, kognitiv makon bu ongimizda konsept va tushunchalarni to'liq anglashga yordam beradigan bilim sohasi va kontekstlardir.⁹ Konseptual murakkablik haqida gapirar ekan, Langaker, asosiy va abstrakt kognitiv makon tushunchalariga ham izoh beradi. Til esa mana shu shu konseptual tizim asosida quriladi. R. Langaker ilgari surgan

⁷ Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor,2006.- B.91

⁸ Yusupov O'.Q-Ma'no,tushuncha, konssept va lingvokulturologiya atamaları xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari.-toshkent,2011.-49-bet

⁹ Langacker, R.W. (1987). Foundation of cognitive grammar: Volume I.-Theoretical prerequisites. Stanford University Press.

ushbu g'oya asosida grammatik tuzilmalar inson idroki va bilim doirasiga bog'liq deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yusupov O'.Q-Ma'no,tushuncha, konssept va lingvokulturologiya atamalari xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida: Ilmiy amaliy konferensiya materiallari.-toshkent,2011.-49-bet.
2. Langacker, R.W. (1987). Foundation of cognitive grammar: Volume I.-Theoretical prerequisites. Stanford University Press.
3. Kant I. Critique of pure reason, by P.Guyer and A.W.Wood. Cambridge University Press. 1998.
4. Lakoff, G.Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. University of Chicago Press. 1987.
5. Lakoff.G. Women, Fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. University of Chicago Press. 1987.